



ISSN: 2181-9416

2-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEP 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2



ESHTURDIYEVA Farangiz Baxodir qizi
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti
yetakchi ilmiy xodimi, doktorant (PhD)
E-mail: farangizbahodirovna@gmail.com

HUQUQIY SIYOSAT STRATEGIK HUQUQIY BOSHQARUVNING MODELI SIFATIDA

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): ESHTURDIYEVA F.B.
Huquqiy siyosat strategik huquqiy boshqaruvning modeli sifatida // Yurist axborotnomasi
– Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2026) B. 8-16.

 2 (2026) DOI <http://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/2-001>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola huquqiy siyosatni strategik huquqiy boshqaruv modeli sifatida nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqola predmeti sifatida huquqiy siyosatning mazmuni, tuzilma elementlari, amalga oshirish mexanizmlari hamda natijadorligini baholash tizimi olingan. Bunda huquqiy siyosatni faqat normativ faoliyat yoki huquqni qo'llash bilan bog'liq hodisa sifatida emas, balki huquqiy rivojlanishni strategik yo'naltirish, muvofiqlashtirish va baholashga qaratilgan kompleks boshqaruv tizimi sifatida asoslash asosiy maqsad sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada huquqiy siyosat tushunchasining nazariy evolyutsiyasi, uning maqsadlar, prinsiplar, subyektlar, vositalar, amalga oshirish mexanizmlari va natijadorlik mezonlaridan iborat ichki tuzilmasi tahlil qilindi. Natijada huquqiy siyosatning samaradorligi uning ilmiy asoslanganlik, tizimlilik, ko'p subyektlilik, izchillik hamda konstitutsiyaviy qadriyatlarga tayanuvchi boshqaruv tabiatiga bog'liq ekani aniqlandi. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, unda huquqiy siyosat mualliflik yondashuvi asosida davlat va jamiyat institutlarining huquqiy tizimni strategik boshqarishga qaratilgan, ilmiy asoslangan va natijaga yo'naltirilgan faoliyati sifatida ta'riflandi. Shuningdek, huquqiy siyosat huquqiy tizimni modernizatsiya qilish, huquqiy qarorlar sifatini oshirish hamda davlat va jamiyat taraqqiyotining barqaror huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi yaxlit strategik boshqaruv modeli sifatida ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: huquqiy siyosat, strategik huquqiy boshqaruv, huquqiy tizim, huquqiy rivojlanish, ilmiy asoslanganlik, konstitutsiyaviylik, huquqni qo'llash, natijadorlik.

ЭШТУРДИЕВА Фарангиз
Ведущий научный сотрудник Института
законодательства и правовой политики при
Президенте Республики Узбекистан, докторант (PhD)
E-mail: farangizbahodirovna@gmail.com

ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА КАК МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПРАВОВОГО УПРАВЛЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена теоретико-правовому анализу правовой политики как модели стратегического правового управления. Предметом статьи являются содержание, структурные элементы, механизмы реализации и система оценки результативности правовой политики. При

этом основной целью является обоснование правовой политики не только как явления, связанного с нормативной деятельностью или правоприменением, но и как комплексной системы управления, направленной на стратегическое направление, координацию и оценку правового развития. В статье анализируется теоретическая эволюция понятия правовой политики, ее внутренняя структура, состоящая из целей, принципов, субъектов, средств, механизмов реализации и критериев результативности. В результате было установлено, что эффективность правовой политики зависит от ее научной обоснованности, системности, многосубъектности, последовательности и природы управления, опирающегося на конституционные ценности. Научная новизна статьи заключается в том, что на основе авторского подхода правовая политика определена как научно обоснованная и ориентированная на результат деятельность государственных и общественных институтов, направленная на стратегическое управление правовой системой. Также правовая политика рассматривалась как целостная стратегическая модель управления, служащая модернизации правовой системы, повышению качества правовых решений и укреплению устойчивых правовых основ развития государства и общества.

Ключевые слова: правовая политика, стратегическое правовое управление, правовая система, правовое развитие, научная обоснованность, конституционность, правоприменение, результативность.

FARANGIZ Eshturdieva

Doctoral Researcher (PhD), Leading Research Fellow
of the Institute of Legislation and Legal Policy under
the President of the Republic of Uzbekistan
E-mail: farangizbahodirovna@gmail.com

LEGAL POLICY AS A MODEL OF STRATEGIC LEGAL GOVERNANCE

ANNOTATION

This article is dedicated to the theoretical and legal analysis of legal policy as a model of strategic legal management. The subject of the article is the content, structural elements, implementation mechanisms, and the system for evaluating the effectiveness of legal policy. At the same time, the primary goal is to substantiate legal policy not only as a phenomenon related to regulatory activities or law enforcement, but also as a comprehensive management system aimed at the strategic direction, coordination, and evaluation of legal development. The article analyzes the theoretical evolution of the concept of legal policy, its internal structure consisting of goals, principles, subjects, means, implementation mechanisms, and performance criteria. As a result, it was established that the effectiveness of legal policy depends on its scientific validity, systematicity, multi-subjectivity, consistency, and the nature of governance based on constitutional values. The scientific novelty of the work is that, based on the author's approach, legal policy is defined as a scientifically grounded and result-oriented activity of state and public institutions aimed at the strategic management of the legal system. Additionally, legal policy was viewed as a holistic strategic management model that serves to modernize the legal system, improve the quality of legal decisions, and strengthen the sustainable legal foundations of state and society development.

Keywords: legal policy, strategic legal governance, legal system, legal development, scientific validity, constitutionality, law enforcement, effectiveness.

Hozirgi global transformatsiyalar, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti hamda davlat boshqaruvi modellarining murakkablashuvi sharoitida huquqiy siyosat davlat rivojlanishining asosiy strategik instrumentlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy davlatda huquqiy taraqqiyot faqat alohida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish orqali emas, balki huquqiy tizimni maqsadli tashkil

etish, muvofiqlashtirish va boshqarish orqali ta'minlanadi. Shu jihatdan huquqiy siyosat huquqiy rivojlanishni strategik boshqarishning kompleks mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda huquqiy siyosatga turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, u davlat hokimiyatining huquqiy tartibga solish sohasidagi faoliyati sifatida talqin qilinadi [1, B.65]. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar huquqiy siyosatni jamiyat rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilovchi strategik huquqiy faoliyat sifatida izohlaydi. Masalan, N.V. Isakov huquqiy siyosatni huquqiy tizimni muvofiqlashtirish va davlatning strategik maqsadlariga erishishni ta'minlovchi tizimli faoliyat sifatida baholaydi [2, B.3].

Huquqiy siyosat tushunchasining shakllanishi tarixiy jihatdan "politika prava" konsepsiyasidan zamonaviy "pravovaya politika" nazariyasigacha bo'lgan evolyutsion jarayon bilan bog'liq. A.V. Malko ta'kidlaganidek, dastlab huquq siyosati huquqni tanqidiy baholash va takomillashtirishga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik u davlatning amaliy faoliyati bilan uzviy bog'liq mustaqil ilmiy kategoriya sifatida shakllandi [3, B.11].

Zamonaviy huquqshunoslikda huquqiy siyosatning mazmuni kengayib, u faqat normativ faoliyat bilan cheklanmay, balki huquqiy tizimni kompleks boshqarish vositasi sifatida qaralmoqda. Xususan, huquqiy siyosat ijtimoiy munosabatlarni huquqiy vositalar orqali tartibga solishning eng samarali shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi, chunki u tizimli, izchil va ilmiy asoslangan yondashuvga tayanadi [2, B.3].

Huquqiy siyosatning nazariy asoslarini chuqurroq tahlil qilgan tadqiqotlarda uning ilmiy asoslanganligi alohida urg'u bilan qayd etiladi. R.Sh. Sativaldiyevning fikricha, huquqiy siyosat ilmiy bilimlar, nazariy konsepsiyalar va empirik tahlillarga asoslanishi lozim, aks holda u samarali natija bermaydi [4, B.11]. Bu esa huquqiy siyosatni oddiy siyosiy qarorlar yig'indisi emas, balki ilmiy boshqaruv mexanizmi sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda huquqiy siyosatga nisbatan eng dolzarb yondashuvlardan biri uni **pozitiv huquqni boshqarish modeli** sifatida talqin qilishdir. O.Yu. Ribakov va S.V. Tixonova ushbu konsepsiyani asoslab, huquqiy siyosatni huquqiy tizimni ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan strategik boshqaruv faoliyati sifatida izohlaydi [5, B.7]. Ushbu yondashuv huquqiy siyosatni alohida qarorlar yig'indisi emas, balki huquqiy rivojlanishni yo'naltiruvchi tizim sifatida ko'rish imkonini beradi.

Huquqiy siyosatning yana bir muhim jihati uning huquqni qo'llash jarayoni bilan uzviy bog'liqligidir. A.V. Malko va V.A. Rudkovskiy huquqni qo'llash siyosatini umumiy huquqiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida ko'rib, uning asosiy vazifasi huquqiy normalarning real ijtimoiy ta'sirini ta'minlashdan iborat ekanligini ta'kidlaydi [6, B.5]. Bu esa huquqiy siyosatning faqat normativ bosqich bilan cheklanmasligini, balki uning amaliy bosqichi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy yondashuvlarda huquqiy siyosatning konstitutsiyaviylashuvi alohida tendensiya sifatida ajratib ko'rsatiladi. D.A. Avdeevning fikricha, huquqiy siyosat inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligi kabi konstitutsiyaviy qadriyatlarga asoslanishi lozim [7, B.25]. Bu yondashuv huquqiy siyosatning mazmuniga sifat jihatdan yangi talablarni qo'yadi va uning samaradorligini baholashda konstitutsiyaviy mezonlarning ustuvorligini belgilaydi.

Bundan tashqari, huquqiy siyosatni boshqaruv obyekti sifatida talqin qiluvchi yondashuv ham mavjud. D.M. Simberov huquqiy siyosatni jamiyatning huquqiy hayotiga ta'sir etuvchi jarayonlar tizimi sifatida baholab, uni samarali boshqarish davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni talab qilishini ta'kidlaydi [8].

Yuqoridagi yondashuvlarni umumlashtirgan holda, quyidagi mualliflik ta'rifini ilgari surish mumkin:

Huquqiy siyosat – bu davlat va jamiyat institutlarining huquqiy tizimni strategik boshqarishga qaratilgan, ilmiy asoslangan, tizimli va konstitutsiyaviy qadriyatlarga tayanuvchi faoliyatidir.

Mazkur ta'rif huquqiy siyosatni strategik huquqiy boshqaruv modeli sifatida talqin qilish imkonini beradi hamda uning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada kengaytiradi.

Shu tariqa, taklif etilgan yondashuv huquqiy siyosatni zamonaviy sharoitda strategik, boshqaruv va konstitutsiyaviy kategoriyalar kesishmasida joylashgan murakkab tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Xususan, huquqiy siyosatning mazmuni maqsadlar, prinsiplar, vositalar va amalga oshirish mexanizmlaridan iborat tizim sifatida qaraladi [9, B.11]. Shu bilan birga, huquqiy siyosatni boshqaruv jarayoni sifatida talqin qiluvchi yondashuvlarda uning axborotga asoslanganligi, qaror qabul qilish va natijalarni baholash elementlari ham alohida ajratib ko'rsatiladi [8].

Mazkur ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, huquqiy siyosatning quyidagi asosiy tuzilma elementlarini ajratish mumkin:

1. Maqsadlar (strategik yo'nalishlar). Huquqiy siyosatning markaziy elementi uning maqsadlari hisoblanadi, chunki aynan ular huquqiy rivojlanishning umumiy vektorini belgilaydi. Huquqiy siyosat maqsadlari davlatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, huquqiy tizimni ushbu strategik yo'nalishlarga moslashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda qayd etilganidek, asosiy maqsadlar qatoriga inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda huquqiy davlatni shakllantirish kiradi [9, B.12].

Zamonaviy sharoitda ushbu maqsadlar yanada kengayib, masalan, raqamli iqtisodiyot sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, sun'iy intellektdan foydalanishda huquqiy kafolatlarni yaratish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash kabi yangi yo'nalishlarni ham qamrab olmoqda. Masalan, ko'plab davlatlarda "data protection" qonunchiligining rivojlanishi aynan huquqiy siyosatning strategik maqsadlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Demak, huquqiy siyosat maqsadlari dinamik xarakterga ega bo'lib, jamiyatdagi real ehtiyojlarga mos ravishda rivojlanadi.

Xalqaro tajribada bu maqsadlar yanada aniq strategik hujjatlar orqali mustahkamlanadi. Masalan, Germaniyada huquqiy siyosat konstitutsiyaviy qadriyatlar asosida olib borilib, inson sha'ni va huquqlari ustuvorligi davlat siyosatining markaziga qo'yilgan. Qozog'istonda esa "Huquqiy siyosat konsepsiyasi – 2030" orqali huquqiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari aniq belgilangan.

O'zbekiston tajribasida ham huquqiy siyosat maqsadlari so'nggi yillarda aniq strategik hujjatlar orqali mustahkamlanmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida qonunchilik sifatini oshirish, inson huquqlarini himoya qilish va davlat boshqaruvini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa huquqiy siyosatning maqsadlari milliy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashayotganini ko'rsatadi.

2. Prinsiplar (asosiy tamoyillar). Huquqiy siyosat muayyan prinsiplar asosida amalga oshiriladi va aynan shu prinsiplar uning legitimligi va samaradorligini ta'minlaydi. Qonuniylik, ilmiy asoslanganlik, tizimlilik, izchillik va oshkoralik kabi tamoyillar huquqiy siyosatning asosiy mezonlari hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy bosqichda konstitutsiyaviylik prinsipi alohida ahamiyat kasb etib, huquqiy siyosatning mazmunini belgilovchi asosiy mezonga aylanmoqda [10, B.25].

Masalan, qonuniylik prinsipi buzilgan sharoitda qabul qilingan har qanday normativ hujjat ijtimoiy jihatdan qabul qilinmaydi va samarali ishlamaydi. Ilmiy asoslanganlik prinsipi esa huquqiy siyosatni subyektiv qarorlar yig'indisidan chiqarib, uni tahlil, prognoz va ekspertiza asosida shakllanadigan tizimga aylantiradi. Shu jihatdan, rivojlangan davlatlarda "Regulatory Impact Assessment (RIA)" instituti keng qo'llanilishi aynan ilmiy asoslanganlik prinsipining amaliy ifodasidir.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida "better regulation" konsepsiyasi asosida har bir normativ hujjat ochiqlik, asoslanganlik va manfaatdor tomonlar ishtiroki tamoyillari asosida ishlab chiqiladi.

Estoniyada esa normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayoni to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, har bir bosqichda oshkoralik va jamoatchilik nazorati ta'minlanadi.

O'zbekistonda ham ushbu prinsiplarga asoslangan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qonun loyihalarini muhokama qilish uchun maxsus elektron platformalar joriy etilishi huquqiy siyosatda oshkoralik va inklyuzivlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

3. Subyektlar (ishtirokchilar tizimi). Huquqiy siyosat ko'p subyekтли jarayon bo'lib, unda turli darajadagi institutlar ishtirok etadi. An'anaviy yondashuvda huquqiy siyosat asosan davlat organlari faoliyati bilan bog'langan bo'lsa, zamonaviy yondashuvda uning subyektlari doirasi ancha kengaygan. Jumladan, ilmiy muassasalar, ekspertlar hamjamiyati, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari ham faol ishtirok etadi [8].

Masalan, qonun loyihalarini ishlab chiqishda jamoatchilik muhokamalari, ekspert xulosalari va akademik tahlillarni jalb qilish amaliyoti kengayib bormoqda. Bu esa huquqiy siyosatni yanada ochiq, inklyuziv va sifatli tizimga aylantiradi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar va reyting tizimlari ham bilvosita huquqiy siyosat subyekti sifatida ta'sir ko'rsatadi (masalan, World Justice Project yoki Transparency International indeksleri).

Rivojlangan davlatlarda qonun loyihalari ilmiy markazlar va mustaqil ekspertlar ishtirokida ishlab chiqiladi. Xususan, Qozog'istonda ham huquqiy siyosatni shakllantirishda ilmiy-tahliliy markazlar faol ishtirok etadi.

O'zbekistonda ham bu yo'nalishda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti, Parlament tadqiqotlari instituti kabi ilmiy muassasalar qonun ijodkorligi jarayonida faol ishtirok etmoqda. Bu esa huquqiy siyosatning ilmiy asoslanganligini kuchaytiradi.

4. Vositalar (huquqiy ta'sir instrumentlari). Huquqiy siyosatni amalga oshirishda turli vositalardan foydalaniladi va aynan ular orqali huquqiy siyosat real ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu vositalar qatoriga normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash aktlari, huquqiy ekspertiza, monitoring va prognozlash kiradi [7, B.6].

Masalan, normativ-huquqiy hujjatlar orqali davlat umumiy qoidalarni belgilasa, huquqni qo'llash aktlari ushbu qoidalarni amaliyotda ro'yobga chiqaradi. Huquqiy ekspertiza esa qabul qilinayotgan hujjatlarning sifatini ta'minlaydi. Zamonaviy bosqichda esa "machine-readable law" yoki raqamli normativ tizimlar kabi yangi vositalar paydo bo'lmoqda, bu esa huquqiy siyosat vositalarining evolyutsiyasini ko'rsatadi.

Masalan, Estoniyada normativ hujjatlar "EIS" (elektron qonunchilik tizimi) orqali ishlab chiqiladi va muhokama qilinadi. Yevropa Ittifoqida esa "impact assessment" vositasi orqali har bir qonunning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri oldindan baholanadi.

O'zbekistonda ham normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda huquqiy ekspertiza, jamoatchilik muhokamasi va raqamli platformalar keng qo'llanilmoqda. Bu esa huquqiy siyosat vositalarining modernizatsiya qilinayotganidan dalolat beradi.

5. Amalga oshirish mexanizmlari. Huquqiy siyosatning samaradorligi uni amalga oshirish mexanizmlariga bevosita bog'liq. Bu mexanizmlar normativ tartibga solish, tashkiliy boshqaruv, muvofiqlashtirish va nazorat elementlarini o'z ichiga oladi [5, B.7]. Mazkur mexanizmlar huquqiy siyosatni nazariy darajadan amaliy darajaga olib chiqadi.

Masalan, qonun qabul qilinishi o'zi yetarli emas — uni amalga oshirish uchun institutsional mexanizmlar, ijro tizimi va nazorat mexanizmlari zarur. Aks holda, "qog'ozdagi huquq" va "real huquq" o'rtasida tafovut yuzaga keladi. Shu bois zamonaviy davlatlarda "implementation gap"ni kamaytirish huquqiy siyosatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Masalan, Germaniyada qabul qilinayotgan qonunlarning ijrosi federal va hududiy darajasidagi organlar tomonidan tizimli ravishda monitoring qilinadi, bunda har bir normativ hujjat bo'yicha

ijro hisobotlari tayyorlanadi. Yevropa Ittifoqida esa “implementation review” mexanizmi orqali direktivalarning a’zo davlatlarda qanday amalga oshirilayotgani muntazam baholanadi.

Estoniya tajribasi ayniqsa e’tiborga loyiq bo’lib, bu davlatda qonunlarni amalga oshirish jarayoni raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali kuzatiladi. Xususan, normativ hujjatlar ijrosi va ularning amaliy natijalari davlat axborot tizimlari orqali real vaqt rejimida tahlil qilinadi.

O’zbekiston tajribasida ham huquqiy siyosatni amalga oshirish mexanizmlari bosqichma-bosqich takomillashmoqda. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini monitoring qilish tizimi joriy etilib, vazirlik va idoralarga qabul qilingan hujjatlarning ijrosi bo’yicha muntazam hisobot taqdim etish majburiyati yuklatilgan. Bundan tashqari, ayrim yo’nalishlarda “yo’l xaritalari” (roadmap) asosida normativ qarorlarning ijrosi bosqichma-bosqich nazorat qilinmoqda.

Shuningdek, davlat organlari faoliyatining samaradorligini baholash tizimi ham huquqiy siyosatni amalga oshirish mexanizmining muhim elementi sifatida shakllanmoqda. Bu tizim orqali nafaqat normativ hujjatlar qabul qilinishi, balki ularning amaliy natijalari ham baholanmoqda. Bu esa huquqiy siyosatni formal emas, balki real natijaga yo’naltirilgan boshqaruv tizimiga aylantiradi.

6. Natijadorlik va baholash tizimi. Huquqiy siyosatning zamonaviy modelida natijadorlikni baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizim orqali qabul qilingan normativ-huquqiy qarorlarning real ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional ta’siri aniqlanadi [10, B.66].

Xalqaro amaliyotda huquqiy siyosat natijadorligini baholash aniq indikatorlar asosida amalga oshiriladi. Masalan, World Justice Project tomonidan e’lon qilinadigan “Rule of Law Index” davlatlarda qonun ustuvorligi darajasini baholaydi. Transparency International’ning “Corruption Perceptions Index” ko’rsatkichi esa korrupsiyaga qarshi siyosat samaradorligini aks ettiradi. Shuningdek, BMTning “E-Government Development Index” davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarning joriy etilish darajasini baholaydi.

Bu indikatorlar faqat statistik ko’rsatkichlar emas, balki huquqiy siyosatning real samaradorligini aks ettiruvchi tizimli mezonlar hisoblanadi. Masalan, qonunchilik sifati oshgan davlatlarda odatda “rule of law” indeksi yuqori bo’ladi, bu esa huquqiy siyosatning to’g’ri yo’naltirilganidan dalolat beradi.

O’zbekiston tajribasida ham so’nggi yillarda huquqiy siyosat natijadorligini baholashda xalqaro indekslardan faol foydalanilmoqda. Xususan, davlat boshqaruvi, qonunchilik sifati va korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligi xalqaro reytinglar orqali baholanib, tegishli islohotlar yo’nalishlari belgilanmoqda.

Bundan tashqari, milliy darajada ham baholash mexanizmlari joriy etilmoqda. Masalan, ayrim normativ-huquqiy hujjatlar bo’yicha ularning amaliy ta’sirini baholash (post-legislative assessment) amaliyoti shakllanmoqda. Bu orqali qabul qilingan qonunlarning real natijasi tahlil qilinib, zarur hollarda ularni takomillashtirish bo’yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

Shunday qilib, huquqiy siyosatning tuzilma elementlari nafaqat nazariy konstruktsiya, balki real boshqaruv tizimini ifodalaydi. Xalqaro va milliy tajriba shuni ko’rsatadiki, huquqiy siyosatning samaradorligi uning barcha elementlari – maqsadlar, prinsiplar, subyektlar, vositalar, mexanizmlar va baholash tizimining uyg’un ishlashiga bog’liq. Ayniqsa, ushbu elementlarning zamonaviy texnologiyalar, ilmiy yondashuv va konstitutsiyaviy qadriyatlar bilan integratsiyasi huquqiy siyosatni pozitiv huquqni boshqarishning kompleks va samarali modeli sifatida shakllantiradi.

Yuqorida qayd etilganidek, huquqiy siyosatning tuzilma elementlari o’zaro bog’langan yagona tizimni tashkil etadi. Biroq ushbu tizimning samaradorligi, avvalo, uning amaliy jihatdan qanday ishlashi, ya’ni strategik boshqaruv modeli real institutlar va mexanizmlar orqali qanday ro’yobga chiqarilishiga bog’liqdir. Shu nuqtai nazardan, huquqiy siyosatni strategik huquqiy boshqaruv modeli sifatida talqin etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham uni institutsionallashtirishni talab qiladi.

Mazkur yondashuv doirasida huquqiy siyosatning amalga oshirilishi **yagona boshqaruv sikli** sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Ushbu sikl quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1)diagnostika va muammo identifikatsiyasi;
- 2) normativ qarorlar ishlab chiqish;
- 3) huquqni qo'llash va ijro etish;
- 4) monitoring va nazorat;
- 5) natijadorlikni baholash va qayta takomillashtirish.

Aynan ushbu bosqichlarning uzluksiz va o'zaro bog'liq ishlashi huquqiy siyosatning strategik boshqaruv modeliga aylanishini ta'minlaydi.

Shu asosda huquqiy siyosatni yanada samarali tashkil etish uchun **quyidagi amaliy mexanizmlarni** joriy etish maqsadga muvofiqdir:

1. Huquqiy siyosatni ishlab chiqishda ilmiy asoslanganlikni ta'minlash uchun **majburiy ilmiy-ekspertiza tizimini institutsional darajada joriy etish zarur** [9, B.12].

Bunda quyidagi mexanizm taklif etiladi:

har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasi bo'yicha **majburiy ilmiy xulosa (scientific review)** joriy etish;

qonun loyihalarini ishlab chiqishda **mustaqil ilmiy markazlar va universitetlar ishtirokini normativ tartibda belgilash;**

normativ hujjatlar bo'yicha oldindan ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirni baholash (RIA)ni majburiy bosqich sifatida kiritish;

huquqiy siyosat yo'nalishlari bo'yicha **prognozlash (foresight) tizimini shakllantirish.**

Bu mexanizm huquqiy siyosatni intuitiv qarorlar yig'indisidan chiqarib, uni ilmiy boshqaruv tizimiga aylantiradi.

2. Huquqiy siyosatning konstitutsiyaviyligini ta'minlash uchun **normativ qarorlarni konstitutsiyaviy filtdan o'tkazish tizimini joriy etish zarur** [7, B.25].

Buning uchun quyidagi mexanizmlar taklif etiladi:

har bir normativ hujjat loyihasi uchun **"konstitutsiyaviy muvofiqlik xulosasi"** (constitutional compliance assessment)ni majburiy qilish;

inson huquqlari, qonun ustuvorligi va proporsionallik prinsiplari asosida **maxsus baholash mezonlarini ishlab chiqish;**

qonun loyihalarini muhokama qilish jarayonida **konstitutsiyaviy ekspertiza institutini kuchaytirish;**

normativ hujjatlarni qabul qilishda **konstitutsiyaviy risklarni aniqlash tizimini joriy etish.**

Mazkur mexanizm huquqiy siyosatni faqat boshqaruv vositasi emas, balki konstitutsiyaviy qadriyatlarga asoslangan tizim sifatida mustahkamlaydi.

3. Huquqiy siyosatning samaradorligini oshirish uchun uni faqat normativ ijodkorlik bilan cheklamasdan, **huquqni qo'llash bosqichi bilan uzviy integratsiya qilish zarur** [6, B.5].

Buning uchun quyidagilar taklif etiladi:

normativ hujjatlarni ishlab chiqishda **huquqni qo'llovchi organlarning (sud, prokuratura, ijro organlari) majburiy ishtirokini ta'minlash;**

qonun loyihalarini ishlab chiqishda **amaliyotdan kelib chiqadigan muammolar bazasini shakllantirish;**

sud amaliyoti va ijro natijalari asosida **normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish mexanizmini joriy etish;**

"qog'ozdagi norma" va "real norma" o'rtasidagi tafovutni aniqlovchi **feedback tizimini yaratish.**

Bu mexanizm huquqiy siyosatni real hayotdan uzilgan tizim emas, balki amaliyotga yo'naltirilgan boshqaruv modeli sifatida shakllantiradi.

4. Huquqiy siyosatni samarali amalga oshirish uchun davlat, ilmiy hamjamiyat va fuqarolik jamiyati o'rtasida **barqaror institutsional hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur** [8].

Buning uchun:

barcha qonun loyihalari bo'yicha **majburiy jamoatchilik muhokamasi mexanizmini kengaytirish**;

ilmiy muassasalar, tahliliy markazlar va ekspertlarni jalb etuvchi **doimiy ekspert platformalarini yaratish**;

normativ hujjatlar bo'yicha **ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish**;

xalqaro ekspertiza va tajribani jalb qilish mexanizmini institutsionallashtirish zarur.

Bu mexanizm huquqiy siyosatni inklyuziv va ochiq boshqaruv tizimiga aylantiradi.

5. Huquqiy siyosatni strategik boshqaruv modeli sifatida shakllantirish uchun uning natijadorligini baholash tizimini joriy etish muhimdir [10, B.66].

Buning uchun quyidagi mexanizm taklif etiladi:

normativ hujjatlar uchun **KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari)** ishlab chiqish;

qonunlarning amaliy ta'sirini aniqlash uchun **post-legislative assessment tizimini joriy etish**;

xalqaro indekslar (rule of law, corruption index va boshqalar) asosida **milliy baholash tizimini integratsiya qilish**;

integratsiya qilish;

huquqiy siyosat samaradorligini baholovchi **yagona monitoring platformasini yaratish**.

Bu mexanizm huquqiy siyosatni natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tizimiga aylantiradi.

Shunday qilib, huquqiy siyosat strategik huquqiy boshqaruv modeli sifatida nafaqat nazariy kategoriya, balki aniq institutsional mexanizmlar orqali amalga oshiriladigan kompleks boshqaruv tizimini ifodalaydi. Ushbu modelning samaradorligi uning barcha elementlari — ilmiy asoslanganlik, konstitutsiyaviylik, institutsional integratsiya va natijadorlikka yo'naltirilganlik — o'zaro uyg'un ishlashiga bog'liq.

Natijada huquqiy siyosat zamonaviy davlatda huquqiy tizimni boshqarishning eng muhim strategik instrumenti sifatida namoyon bo'lib, u huquqiy tizimni izchil modernizatsiya qilish, huquqiy qarorlar sifatini oshirish va jamiyat rivojlanishining barqaror huquqiy asoslarini ta'minlashga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES:

1. Еремин, А. Р., Любушкин, В. А., & Кузенков, К. Г. (2018). Правовая политика Российской Федерации: значение и основные проблемы. Социально-политические науки, (3), 65–66. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovaya-politika-rossiyskoy-federatsii-znachenie-i-osnovnye-problemy>

2. Исаков Н. В. (2004). Правовая политика современной России: проблемы теории и практики [Автореферат докторской диссертации]. Ростов-на-Дону. URL: <https://www.dissercat.com/content/pravovaya-politika-sovremennoi-rossii-problemy-teorii-i-praktiki>

3. Малько А. В. (2012). От политики права к правовой политике. Вестник Саратовской государственной юридической академии, (3), 11–15. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=18081303>

4. Сативалдыев, Р. Ш. (n.d.). Научные основы правовой политики. Вестник Таджикского национального университета. Серия гуманитарных наук. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nauchnye-osnovy-pravovoy-politiki>

5. Рыбаков О. Ю., Тихонова, С. В. (2015). Правовая политика как управление позитивным правом: новая версия теории правовой политики. Lex Russica, (3), 7–18.

6. Малько А. В., Рудковский, В. А. (2017). Правоприменительная политика: понятие, содержание, назначение. Правоприменение, 1(3), 5-14. URL: [https://doi.org/10.24147/2542-1514.2017.1\(3\).5-14](https://doi.org/10.24147/2542-1514.2017.1(3).5-14)

7. Авдеев Д. А. (2018). Конституционализация правовой политики в современной России. Правоприменение, 2(4), 25–29. URL: [https://doi.org/10.24147/2542-1514.2018.2\(4\).25-29](https://doi.org/10.24147/2542-1514.2018.2(4).25-29)

8. Цимберов Д. М. (n.d.). Правовая политика как объект управления URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovaya-politika-kak-obekt-upravleniya>

9. Титенко Ю. А. (2007). Принципы, виды и механизм реализации российской правовой политики: общетеоретический аспект [Автореферат кандидатской диссертации]. Тамбов. URL: <https://www.dissercat.com/content/printsipy-vidy-i-mekhanizm-realizatsii-rossiiskoi-pravovoi-politiki-obshcheteoreticheskii-as>

10. Рудковский В. А. (2014). Правовая политика в системе юридических категорий. Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 5, Юриспруденция, (1), 63–68. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovaya-politika-v-sisteme-yuridicheskikh-kategoriy#:~:text=%D0%92%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B5%20%D0%BF%D1%80%D0%B5%D0%B4%D0%BF%D1%80%D0%B8%D0%BD%D1%8F%D1%82%D0%B0%20%D0%BF%D0%BE%D0%BF%D1%8B%D1%82%D0%BA%D0%B0%20%D0%BE%D0%B1%D1%89%D0%B5%D1%82%D0%B5%D0%BE%D1%80%D0%B5%D1%82%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%BE%D0%B3%D0%BE%20%D0%B0%D0%BD%D0%B0%D0%BB%D0%B8%D0%B7%D0%B0%20%D1%81%D0%BE%D0%BE%D1%82%D0%BD%D0%BE%D1%88%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F,%D0%BA%D0%B0%D1%82%D0%B5%D0%B3%D0%BE%D1%80%D0%B8%D1%8F%D0%BC%D0%B8%20%D1%8E%D1%80%D0%B8%D0%B4%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%BE%D0%B9%20%D0%BD%D0%B0%D1%83%D0%BA%D0%B8%2C%20%D0%BA%D0%B0%D0%BA%20%D1%84%D1%83%D0%BD%D0%BA%D1%86%D0%B8%D0%B8%20%D0%B3%D0%BE%D1%81%D1%83%D0%B4%D0%B0%D1%80%D1%81%D1%82%D0%B2%D0%B0%2C%20%D0%BF%D1%80%D0%B0%D0%B2%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%8F>

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/2

2026-YIL